

MADANIYATLARARO MULOQOT VA TA'LIM: O'ZARO ALOQADORLIGI, ISTIQBOLLAR VA CHAQIRIQLAR

Madumarova Shoxsanam Muxtorali qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

E-mail: sh.madumarova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisda muallif madaniyatlararo muloqot va ta'lim o'rtasidagi uzviy bog'liqlikka e'tibor qarab, madaniyatlararo ta'lim nazariyasining turli jihatlarini ochib bergan. Shu bilan birga madaniyatlararo ta'lim nazariyasi oldida turgan chaqiriqlar va tahdidlarni ham tahlil qilib, ta'lim tizimi rivojiga oid turli istiqbollarni ko'rib chiqadi. Muallifning fikricha, kelajakda madaniyatlararo ta'lim nazariyasi turli o'zgarishlarga duch keladi va bunda aynan inklyuzivlik tendentsiyasi kuchayib boradi.

Kalit so'zlar: ta'lim, madaniyat, madaniyatlararo muloqot, komparativistika.

THE DIALOGUE OF CULTURES AND EDUCATION: INTERCONNECTION, PERSPECTIVES AND CHALLENGES

Madumarova Shokhsanam Muxtorali qizi

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

E-mail: sh.madumarova@gmail.com

Abstract. In this thesis, the author highlights the interconnection between intercultural dialogue and education, elucidating various aspects of the theory of intercultural learning. Additionally, the author analyzes various challenges and threats facing the theory of intercultural education, and explores different trends in the development of the education system. According to the author's viewpoint, in the future, the theory of intercultural learning will undergo various changes, with a strengthened trend towards inclusivity.

Keywords: education, culture, intercultural dialogue, comparative studies.

Bugungi kunda ta'lim tizimi ijtimoiy muloqot uchun muhim zamin hisoblanadi, chunki aynan o'quv jarayonida davomida jamiyatining turli a'zolar bir-biri bilan o'zaro harakatga, muloqotga kirishadi, birgalikda bilimlarni o'zlashtirishadi va shu bilan birga muhim ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishadi. Shuni ham ta'kidlash joizki, ta'lim muhiti inson shaxsi shakllanishi, dunyoqarashi kengayishi uchun katta ahamiyatga ega [1, 45]. Ayniqsa zamonaviy globalizatsiya shart-sharoitlarida turli innovatsiyalar ta'limga oid yangi g'oyalar, imkoniyatlar va vositalar, pedagogik va boqsharuv qarorlar, ta'lim amaliyotida raqamli texnologiyalar ta'limni yangi sifatiy darajaga ko'tarilishi kuzatilmoqda [2, 288]. Bundan tashqari, sun'iy intellektning paydo bo'lishi ham bevosita ta'lim texnologiyalari va pedagogik kontseptsiyalarga katta ta'sir o'tkazmoqda, yangi transformatsiyalarni yuzaga keltirmoqda [3, 55]. Bularning barchasi bevosita ta'limning madaniy konteksti bilan bog'liq, zero ta'lim – bu turli madaniyatlarning vakillari o'rtasida muloqot uchun fundamental platformadir, chunki madaniyat ta'limning sifatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiluvchi muhim omil [4, 86]. Mashhur sotsiolog-olimlar P.Burdyo va J.-K.Passeron turli madaniy guruhlardan kelib chiqqan o'quvchilarga ta'lim jarayoni turlicha ta'sir qilishini ta'kidlab o'tishgan [5, 16-17]. Shu ham ta'lim va madaniyat hamda madaniyatlararo muloqot o'rtasidagi aloqadorlik mavjudligiga tasdiqlardan biridir.

Madaniyatlararo muloqot – bu turli xalqlar va jamiyatlar o'rtasidagi o'zaro almashinuv va o'zaro ta'sir jarayonidir. Ushbu jarayon davomida kishilarda madaniy o'zlikka oid hurmat bilan yondashish, madaniy inklyuziya shakllanadi. Madaniyatlararo muloqotning qadriyatlarini

singdirish uchun muhim platformalardan biri aynan ta'lim hisoblanadi. Ammo ta'lim tizimida madaniyatlararo muloqot optimal ravishda amalga oshishi uchun quyidagi tamoyillarga asoslanishi zarur:

- 1) bag'rikenglik;
- 2) plyuralizm;
- 3) kognitiv kamtarlik;
- 4) yakka shaklliksiz yagonalik.

Shuni ham ta'kidlash joizki, bag'rikenglik va plyuralizm madaniyatlararo falsafa nuqtai nazardan bag'rikengli plyuralizm (tolerant pluralism) tamoyiliga aylanadi. Bu degani kishilar bir-biri o'rtasida farqlar mavjudligini nafaqat tan olishi, balki qabul qilishi ham va turli nuqtai nazarlar mavjudligini anglash. Kognitiv kamtarlik (cognitive modesty) tamoyili haqida madaniyatlararo falsafaning asosiy vakillaridan biri bo'lgan Ram Adxar Mall yozib o'tgan. Uning fikricha, kognitiv kamtarlik – bu inson o'z bilimlari cheklanganligi hamda yangi narsalarni bilishga tayyorgarlik, boshqalarning fikrlarini hurmat qilish, o'z fikriga shubha bilan yondashish, o'z-o'zini adekvat tarzda tanqid qilish [6, 4]. Faylasuf yakka shaklliksiz yagonalik tamoyili haqida ham fikr yuritib, ushbu tamoyil insonlarga turli jamiyat a'zolari o'rtasida turli farqlar mavjudligi, ammo barcha farqlarni yakka shaklga keltirib bo'lmazligi va shu bilan birga barchamiz yagona insoniyatning bir qismiligimizni o'rgatadi [7, 69]. Ko'rishimiz mumkinki, qay darajada ushbu tamoyillar fundamental xarakterga ega.

Hozirgi davrda madaniyatlararo ta'lim olida ko'p millatli va ko'p madaniyatli jamiyatlar ko'payishi sari turli chaqiriqlar mavjud. Ular quyidagicha:

1. Madaniy xilma-xillik va shu tufayli turli madaniy qadriyatlar va urf-odatlar nuqtai nazardan ta'lim dasturlari va metodikalarni moslashtirish.
2. Til bilan bog'liq to'siqlar, ya'ni turli tillarda ta'lim olish uchun imkoniyatni ta'minlash.
3. Madaniy farqlarni tushunish va hurmat qilishga oid tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etish.
4. Jahonda ro'y berayotgan migratsiya jarayonlari, migrantlarning ijtimoiy-madaniy moslashuvini ta'lim orqali ta'minlash.
5. Texnologik muammolar.
6. Pedagoglarning malakasi.

Yuqoridagi chaqiriqlarga javob sifatida madaniyatlararo ta'limda biz quyidagi tendentsiyalarni ajratib chiqishimiz mumkin:

- turli tillar va madaniyatlar o'rtasida integratsiya (sintez emas);
- madaniyatlararo kompetentsiyani o'stirish va rivojlantirish;
- har xil tillarda ta'lim olish uchun texnologiyalarni yaratish va takomillashtirish;
- etnotsentrizmga barham berish;
- ta'lim muassasalarining internatsionalizatsiyasi;
- madaniyatlararo ta'limning umumiy ta'lim muhitiga integratsiyasi.

Shuni ham aytib o'tish lozimki, jadal rivojlanayotgan sun'iy intellekt ham madaniyatlararo ta'limda o'z ahamiyatga ega, chunki u ta'limni turli insonlarning madaniy o'zligiga individuallashtirishi mumkin. Umuman olganda, madaniyatlararo ta'lim nazariyasi ta'limning taraqqiyotida global ahamiyatga ega. Tadqiqotchi D.Koulbining ta'kidlashicha, 20 asr boshida ta'lim multimadaniylikdan aynan madaniyatlararolikga o'tgan [8, 245]. Bizningcha, bugun biz madaniyatlararo ta'limda nafaqat dialog, balki polilog haqida gapirishimiz mumkin. F.Vimmer madaniyatlararo polilog tushunchasini kiritib, uning etimologik ma'nosiga e'tibor qaratgan [9]. Polilog (ko'plar o'rtasidagi muloqot) dialogga (ikki tomonlar o'rtasidagi muloqot)

farqlanib, madaniyatlararo muloqot jarayonini yanada kengaytiradi. Bu esa aynan madaniyatlararo ta'lim nazariyasini yanada yuqori darajaga ko'taradi.

Istiqbolga nazar tashasak, madaniyatlararo ta'lim yanada rivojlanadi, uning doiralari kengayadi, lekin turli transformatsiya jarayonlari uni tubdan o'zgartirishi mumkin. Ya'ni madaniyatlararo ta'lim nazariyasi inklyuziv ta'lim nazariyasiga shakliga kelishi mumkin. Transmadaniy ta'lim nazariyasi o'z dolzarbligi yo'qotgan. Falsafiy-komparativistik nuqtai nazardan bu ta'limning barcha jihatlarini qamrab olinishiga zarur shart-sharoitlar yaratadi. Lekin madaniyatning ta'lim muhitiga kuchli ta'siri saqlanib boradi. Albatta ushbu transformatsiyalar negizida falsafa turadi, chunki aynan ushbu fan ta'lim va pedagogika uchun g'oyaviy fundamentni tashkil etadi va yuqorida qayd etilgan chaqiriqlar va tahdidlarga javob barham berish uchun nazariy-metodologik bazani tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sanakuiev M. The Value of Knowledge in the Age of Globalization Challenges: Philosophical and Intellectual Context // *Futurity Philosophy*, 2022, 1(2), p. 42-54. DOI: 10.57125/FP.2022.06.30.04.
2. Sas N., Didenko N., Sira L., Mokan N., & Vakerych M.. Innovative systems of Ukrainian education in the context of globalization: Philosophical content of categories // *Revista Eduweb*, 2023, №17(2), p. 285-292. DOI: 10.46502/issn.1856-7576/2023.17.02.24.
3. Naumenko O., Sapaev U., Skatershchikova A., Bekbaev R. Artificial Intelligence: Philosophical Aspects of Understanding // *Wisdom*, 2021, 1(17), p.53-64. DOI: 10.24234/wisdom.v17i1.428.
4. Karimov R., Naumenko O., Saidova K., Elmuratov R., Bekbaev. The Phenomenon of Education in the Context of and Intercultural Philosophical Approach // *Wisdom*, 2022, 4(24), p.84-90. DOI: 10.24234/wisdom.v24i4.941.
5. Bourdieu P., Passeron J.-C. *Reproduction in education, society and culture*. London: Sage Publications, 1977.
6. Mall R.A. *Intercultural philosophy*. – Lanham, MD: Rowman & Littlefield, 2000.
7. Mall R.A. Intercultural philosophy: A conceptual clarification // *Confluence: Journal of World Philosophies*, 2014, 1, p.67-84.
8. Coulby D. Intercultural education: theory and practice // *Intercultural Education*, 2006, 17(3), p.245-257. DOI: 10.1080/14675980600840274.
9. Wimmer F.M. *Essays on intercultural philosophy*. – Chennai-Madras: Satya Nilayam, 2002.